

“TASDIQLAYMAN”
TDIU SF O‘quv ishlari bo‘yicha direktor
o‘rinbosari F.B.Axrоров
2025 y

60410100-Iqtisodiyot

T/r	Fanning kodi*	Fanning nomi	Fanning qisqa tavsifi	Kredit miqdori	Semetr	Professor-o‘qituvchilar F.I.Sh., ilmiy unvoni va darajasi
1-bosqich 1-semestr: Majburiy fanlar						
1.	AMAT11210	Amaliy matematika 1, 2	Ushbu kursda iqtisodiyotning barcha yonalishlarida qo‘llaniladigan matematik tushunchalarning asoslari o‘rganiladi. Bizga ma‘lumki iqtisodiyotdagi masalalar avval matematika tiliga so‘ngra matematik tildan esa algebra tiliga o‘giriladi. Natijada iqtisodiy masalalarni yechish uchun ularni algoritmlari yaratiladi. Iqtisoddagi masalalarni yechishda zamonaviy usullardan biri bu “machine learning” bo‘lib, asosan katta hajmdagi ma‘lumotlar omborini tahlil qilishda Python dasturlash tilining “numpy”, “pandas”, “matplotlib”, “sklearn” kutubhonalaridan foydalaniladi. Bu kutubhonalar chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika tushunchalari asosida yaratilgan. Statistik ma‘lumotlarni tahlil qilishda “Stata” dasturiy paketi haqida ham huddi shunday fikrlarni bildirish mumkin. Kurs chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo‘limlaridan iboratdir. Chiziqli algebra qismi matritsalar nazariyasidan boshlanib vector fazo tushunchalarigacha bo‘lgan qismni o‘z ichiga oladi. Matematik analiz qismi funksiyalardan boshlab, differensial tenglamalar kursini ham o‘z ichiga oladi.	5	1	
2.	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1, 2	Bu fan iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, talab va taklif, bozorlar va ularning funksiyalari, ishlab chiqarish va xarajatlar kabi mavzularni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar mikroiqtisodiyot asoslari bilan tanishadilar, shuningdek, iqtisodiy agentlar (shu jumladan iste‘molchilar va ishlab chiqaruvchilar) o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirlarni o‘rganadilar. Iqtisodiyot nazariyasi 2 bu fan makroiqtisodiyotga bag‘ishlangan bo‘lib, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, ish o‘rinlari va davlat siyosati kabi masalalarni qamrab oladi. O‘quvchilar iqtisodiy indikatorlar, ularning o‘zgarishi va iqtisodiy siyosatning samaradorligini tahlil qilishni o‘rganadilar.	5	1	

3.	IAKTT1105	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	Mamlakatda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ish olib borilmoqda. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini boshqarish va joriy etish sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga, sifatli axborot xizmatlarini ko'rsatishga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu kurs yordamida talabalar iqtisodiyotda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etishning imkoniyatlari, afzalliklari, dasturiy va texnologik ta'minoti, zamonaviy texnik vositalar, operasion tizimlar va zamonaviy dasturlarda axborotlarni qayta ishlash va hisob-kitoblarni amalga oshirish, hisoblash jarayonlarini avtomatlashtirish tamoyil va uslublari bilan chuqur hamda har tomonlama o'rganadilar. Shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash va unda bulutli texnologiyalarni qo'llash, axborot tizimlari va texnologiyalari xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlari, raqamli iqtisodiyotning blokcheyn texnologiyalari bilan amallarni bajarish, biznes-muhitlarda biznes axborot tizimlarining faoliyat yuritishi, elektron biznes va biznes anatlilika xisobotlarini tayyorlash va samarali foydalanish bo'yicha har tomonlama bilimlarga ega bo'ladilar.	5	1	
4.	XT11106	Xorijiy til 1 (ingliz, nemis)	Xorijiy til 1 (ingliz, nemis) fani talabalarga birinchi xorijiy tilni o'rganish va unda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu kurs ingliz yoki nemis tilini o'rganishni boshlashdan oldin talabalar uchun tilning asosiy qoidalarini tushunish, yozma va og'zaki so'zlashuv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.	6	1	
5.	ITT1105	Iqtisodiy ta'limotlar tarixi	Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani iqtisodiy fikrning rivojlanishi va uning asosiy oqimlarini o'rganishga qaratilgan. Bu fan iqtisodiy nazariyalar, yondashuvlar va ularning tarixiy kontekstda qanday shakllanganini, rivojlanganini va o'zgarishlarga qanday javob berganini tahlil qiladi va Iqtisodiy g'oyalar va ularning zamon bilan qanday o'zgarishini o'rganish orqali o'quvchilarga iqtisodiy tafakkur va nazariyalarni kengroq kontekstda o'rganishiga yordam beradi.	5	1	
6.	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	Fanni bo'lajak mutaxassislarga o'qitishda talabalarni o'zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan hududlardan biri, o'zbek xalqi boy tarixiy o'tmish va bebaho ma'naviy merosga egaligi, mustaqillik yillarida	4	1	

			O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatib berish va jamiyat hayotida, ijtimoiy turmush tarzida ma'naviyatning asosi bo'lmish tarix fanining o'rnini talaba yoshlarga o'zlikni anglash vositasi sifatida, shuningdek, O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida barkamol avlodni tarbiyalashda, shaxs, fuqaro, inson, jamiyat va davlat tamoyili mohiyatini yetkazib berishdan iborat			
			1-bosqich 2-semestr: Majburiy fanlar			
7.	AMAT11210	Amaliy matematika 1, 2	Ushbu kursda iqtisodiyotning barcha yonalishlarida qo'llaniladigan matematik tushunchalarning asoslari o'rganiladi. Bizga ma'lumki iqtisodiyotdagi masalalar avval matematika tiliga so'ngra matematik tildan esa algebra tiliga o'giriladi. Natijada iqtisodiy masalalarni yechish uchun ularni algoritmlari yaratiladi. Iqtisodiyotdagi masalalarni yechishda zamonaviy usullardan biri bu "machine learning" bo'lib, asosan katta hajmdagi ma'lumotlar omborini tahlil qilishda "Python" dasturlash tilining "numpy", "pandas", "matplotlib", "sklearn" kutubxonalaridan foydalaniladi. Bu kutubxonalar chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika tushunchalari asosida yaratilgan. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda "Stata" dasturiy paketi haqida ham huddi shunday fikrlarni bildirish mumkin. Kurs chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo'limlaridan iboratdir. Chiziqli algebra qismi matritsalar nazariyasidan boshlanib vector fazo tushunchalarigacha bo'lgan qismni o'z ichiga oladi. Matematik analiz qismi funksiyalardan boshlab, differensial tenglamalar kursini ham o'z ichiga oladi. Hodisalar ehtimoligi, tasodifiy miqdorlar va statistik ma'lumotlarni tahlil qilishga oid bo'lgan masalalar ehtimollar nazariyasi va matematik statistika qismida mujassam bo'lgan.	5	2	
8.	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1, 2	Bu fan iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, talab va taklif, bozorlar va ularning funksiyalari, ishlab chiqarish va xarajatlar kabi mavzularni o'z ichiga oladi. O'quvchilar mikroiqtisodiyot asoslari bilan tanishadilar, shuningdek, iqtisodiy agentlar (shu jumladan iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar) o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni o'rganadilar. Iqtisodiyot nazariyasi 2 bu fan makroiqtisodiyotga bag'ishlangan bo'lib, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, ish o'rinlari va davlat siyosati kabi masalalarni qamrab oladi. O'quvchilar iqtisodiy indikatorlar, ularning o'zgarishi va iqtisodiy siyosatning samaradorligini tahlil qilishni o'rganadilar.	5	2	
9.	XT21204	Xorijiy til 2 (ingliz, nemis)	Xorijiy til 1 (ingliz, nemis) fani talabalarga birinchi xorijiy tilni o'rganish va unda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu kurs	4	2	

			ingliz yoki nemis tilini o'rganishni boshlashdan oldin talabalar uchun tilning asosiy qoidalarini tushunish, yozma va og'zaki so'zlashuv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.			
10.	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	O'zbek (rus) tili fani talabalarga ona tili yoki rus tilini chuqurroq o'rganish, yozma va og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan kursdir. Ushbu fan talabalarni akademik, rasmiy va kundalik so'zlashuv vaziyatlarida tilni to'g'ri va samarali qo'llashga o'rgatadi.	4	2	
11.	DIN1204	Dinshunoslik	Talabalarda-yoshlar tafakkurida dinning mazmun-mohiyati, dunyoning diniy manzarasi, diniy va falsafiy qarashlarning o'zaro bog'liqligi, globallashuv va diniy jaryonlari hamda zamonaviy diniy harakatlar, diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmning davlat va jamiyat xavfsizligaga salbiy ta'sirini bilish va unga qarshi kurashishda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.	4	2	
12.	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	Fanni o'qitishda talabalarning umumta'lim maktabi, akademik litsey va kasb - hunar kollejlari jismoniy tarbiya, tibbiy, tibbiy biologiya, ijtimoiy fanlar, maktab gigienasi, pedagogika, umumiy psixologiya, pedagogik mahorat, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, sport tibbiyoti kabi fanlardan olgan bilim va malaka – ko'nikmalarga asoslanadi.	4	2	
13.	AKKK1204	Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik	Talabalarga akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlikning mohiyati va nazariy-uslubiy asoslarini tushuntirish; shaxsiy akademik faoliyat va uni samarali tashkil etish bo'yicha tushunchalar berish; akademik ko'nikmalar va ularni shakllantirish jarayonining o'ziga xos jihatlarini yoritib berish; talabalarga akademik ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llari yuzasidan tavsiyalar berish; talabalarda o'z-o'zini boshqarish va samaradorlik uchun javobgarlik hissiini uyg'otish; talabalarda mustaqil ta'lim olish jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish; talabalarning jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish; ta'lim olish va kasbiy faoliyatni rivojlantirishda kreativ fikrlashning o'rni haqida fikr yuritish; iqtisodchi mutaxassis uchun talab qilinadigan umumiy va kasbiy ko'nikmalar bilan talabalarni tanishtirish.	4	2	

			2-bosqich 3-semestr: Majburiy fanlar			
14.	FAL1304	Falsafa	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalar dunyoqarashining umumlashgan tizimini yaratish va unda inson o'rnini ko'rsatish, insonning dunyoga bo'lgan bilish, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa munosabatlarini shakllantirish hamda to'g'ri fikrlash mahoratini o'rgatishdan iborat.	4	3	
15.	STAT1306	Statistika	Statistika fani ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, talqin qilish va taqdim etish bilan shug'ullanuvchi fan bo'lib, har xil sohalarda qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilashda yordam beradi. Bu fan talabalarni statistik uslublar va tahliliy vositalar bilan tanishtiradi, ularga ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini beradi	6	3	
16.	EKMET1305	Ekonometrikaga kirish	Talabalar zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan ba'zi asosiy ekonometrik usullarni o'rganadilar. Ular algebra va statistika bo'yicha chiziqli kurslarida o'rganganlaridan standart chiziqli modelda va ba'zi boshqa umumiy modellarda OLS baholashning asosiy cheklangan namunalari va asimptotik xususiyatlarini olish uchun foydalanadilar. Ular ham bilib olishadi endogen regressorlar muammosi va IV va 2SLSni baholash bilan. Bundan tashqari, talabalar iqtisodiy dasturlarda ekonometrik usullar bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'ladi. Ma'ruzalar davomida talabalar iqtisodiy adabiyotlardan olingan murojaatlarni o'rganadilar. Darslar va kompyuter darslarida ular nazariya haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishadi, lekin shuningdek, ekonometrik modelni diqqat bilan tanlash va empirik natijalarni qanday talqin qilish haqida o'ylab, Stata dasturiy ta'minotidan foydalangan holda usul va usullarni o'zlarida qo'llashadi.	5	3	
17.	MIKIQ13410	Mikroiqtisodiyot 1, 2	Talabalarga mikroiqtisodiy muammolarni tavsiflash qaysi nazariy modelga mos kelishini tanlash va ularga nazariy modellarni iqtisodiy hodisalarga nisbatan mustaqil qo'llay olish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kerakli usullar va natijalarning qo'llanilishini yaxshiroq nazorat qilish uchun talabalardan keyingi darslarda muhokama qilinishi mumkin bo'lgan amaliy va vaziyatli topshiriqlarni bajarish talab qilinadi. Iqtisodiyotning individual agentlar, ya'ni iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va bozorlar darajasidagi faoliyatini o'rganadigan soha. U iqtisodiy qarorlar, resurslarni taqsimlash va bozor mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan.	5	3	
18.	IQS1305	Iqtisodiy siyosat	Iqtisodiy siyosat — davlat yoki hukumat tomonidan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish va iqtisodiy faoliyatni boshqarish uchun belgilangan strategiyalar, chora-tadbirlar va qonunlardir. Bu siyosat iqtisodiy o'sish, barqarorlik, ish bilan	5	3	

			ta'minlash, inflyatsiya va iqtisodiy tengsizlik kabi muammolarni hal qilishga qaratilgan.			
19.	IQMT1305	Iqtisodiyotda ma'lumotlar tahlili	Iqtisodiyotda ma'lumotlar tahlili fani iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash va qaror qabul qilishda yordam beruvchi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va taqdim etishga qaratilgan. Bu fan iqtisodiy tadqiqotlar va analitik ishlar uchun zarur bo'lgan statistik usullar, matematik modellar va boshqa tahlil usullarini o'rganishga asoslangan	5	3	
			2-bosqich 4-semestr majburiy fanlar			
20.	AEKMET1405	Amaliy ekonometrika	Talabalar zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan ba'zi asosiy ekonometrik usullarni o'rganadilar. Ular algebra va statistika bo'yicha chiziqli kurslarida o'rganganlaridan standart chiziqli modelda va ba'zi boshqa umumiy modellarda OLS baholashning asosiy cheklangan namunalarini va asimptotik xususiyatlarini olish uchun foydalanadilar. Ular ham bilib olishadi endogen regressorlar muammosi va IV va 2SLSni baholash bilan. Bundan tashqari, talabalar iqtisodiy dasturlarda ekonometrik usullar bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'ladilar. Ma'ruzalar davomida talabalar iqtisodiy adabiyotlardan olingan murojaatlarni o'rganadilar. Darslar va kompyuter darslarida ular nazariya haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishadi, lekin shuningdek, ekonometrik modelni diqqat bilan tanlash va empirik natijalarni qanday talqin qilish haqida o'ylab, Stata dasturiy ta'minotidan foydalangan holda usul va usullarni o'zlarida qo'llashadi.	5	4	
21.	MIKIQ13410	Mikroiqtisodiyot 1, 2	Talabalarga mikroiqtisodiy muammolarni tavsiflash qaysi nazariy modelga mos kelishini tanlash va ularga nazariy modellarni iqtisodiy hodisalarga nisbatan mustaqil qo'llay olish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kerakli usullar va natijalarning qo'llanilishini yaxshiroq nazorat qilish uchun talabalardan keyingi darslarda muhokama qilinishi mumkin bo'lgan amaliy va vaziyatli topshiriqlarni bajarish talab qilinadi. Iqtisodiyotning individual agentlar, ya'ni iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va bozorlar darajasidagi faoliyatini o'rganadigan soha. U iqtisodiy qarorlar, resurslarni taqsimlash va bozor mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan.	5	4	
22.	MAKIQ14510	Makroiqtisodiyot 1, 2	Makroiqtisodiyot 1 va 2 fanlari iqtisodiyotning umumiy ko'rsatkichlari, milliy iqtisodiyot va uning dinamikasini o'rganishga qaratilgan. Bu fanlar iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, ish bilan ta'minlash va davlat siyosatini tahlil qiladi. Iqtisodiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi va iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish uchun zarur bilimlarni beradi.	5	4	
			2-bosqich 4-semestr tanlov fanlar (15 ECTS)			

		Iqtisodiyot				
23.	MAR2405	Marketing	Marketing fani bozorda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni faollashtirish uslublarini, tovarlarni ishlab chiqarish hamda sotish muammolarini kompleks, tizimli yechish uslublarini, bozorda vujudga keladigan o'zgarishlarga tezda moslashish, iste'molchilarga tabaqali yondashish, raqobatbardosh yangi tovarlarni vujudga keltirish va prognoz qilish hamda ta'sirchan reklamani rivojlantirish masalalarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandir. Bozor iqtisodiyoti sharoiti faoliyatini tubdan yaxshilash, sotuvchilar va xaridorlar uchun eng qulay sharoitlarni yaratish, shu orqali aholining talab-ehtiyojini qondirib, ularning turmush tarzi darajasini yuksaltirish, marketing faoliyatini amalda keng qo'llash bilan bog'liq bo'lib, bu esa «Marketing» fanining hozirgi davrda dolzarbligidan dalolat beradi.	5	4	
24.	MENJ1405	Menejment	Menejmentning rivojlanish tarixi va hozirgi holati, menejmentning nazariy asoslari, menejment texnologiyasi, tashkilotlar va ularni boshqarish, zamonaviy menejer, boshqaruv mehnatini tashkil qilish, kichik biznesni faoliyat yuritishining boshqaruv va tashkiliy jihatlari, korxona qudratini boshqarish, tovarlar raqobatbardoshligini boshqarishni o'rganish, ulardan amaliyotda foydalanish, menejer kadrlarni o'qitish va ulardan iqtisodiyotni boshqarishda samarali foydalanish, menejment samaradorligi ko'rsatkichlari va uni baholash usullarini o'rganishdir.	5	4	
25.	TA2405	Tadbirkorlik asoslari	Tadbirkorlik asoslari fani tadbirkorlik va biznes faoliyatining nazariy va amaliy jihatlari o'rganadi. Bu fan, tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan asosiy tamoyillarni o'rganadi.	5	4	
26.		Yashil Iqtisodiyot				
27.	MAR2405	Marketing	Marketing fani bozorda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni faollashtirish uslublarini, tovarlarni ishlab chiqarish hamda sotish muammolarini kompleks, tizimli yechish uslublarini, bozorda vujudga keladigan o'zgarishlarga tezda moslashish, iste'molchilarga tabaqali yondashish, raqobatbardosh yangi tovarlarni vujudga keltirish va prognoz qilish hamda ta'sirchan reklamani rivojlantirish masalalarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandir. Bozor iqtisodiyoti sharoiti faoliyatini tubdan yaxshilash, sotuvchilar va xaridorlar uchun eng qulay sharoitlarni yaratish, shu orqali aholining talab-ehtiyojini qondirib, ularning turmush tarzi darajasini yuksaltirish, marketing faoliyatini amalda keng qo'llash bilan bog'liq bo'lib, bu esa «Marketing» fanining hozirgi davrda dolzarbligidan dalolat beradi.	5	4	

28.	MENJ1405	Menejment	Menejmentning rivojlanish tarixi va hozirgi holati, menejmentning nazariy asoslari, menejment texnologiyasi, tashkilotlar va ularni boshqarish, zamonaviy menejer, boshqaruv mehnatini tashkil qilish, kichik biznesni faoliyat yuritishining boshqaruv va tashkiliy jihatlarini, korxona qudratini boshqarish, tovarlar raqobatbardoshligini boshqarishni o'rganish, ulardan amaliyotda foydalanish, menejer kadrlarni o'qitish va ulardan iqtisodiyotni boshqarishda samarali foydalanish, menejment samaradorligi ko'rsatkichlari va uni baholash usullarini o'rganishdir.	5	4	
29.	TA2405	Tadbirkorlik asoslari	Tadbirkorlik asoslari fani tadbirkorlik va biznes faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi. Bu fan, tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan asosiy tamoyillarni o'rganadi.	5	4	
30.		Raqamli Iqtisodiyot				
31.	RI2605	Raqamli iqtisodiyot	"Raqamli iqtisodiyot" kursida bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt, kata ma'lumotlar, blokcheyn va kriptovalyutalar o'rganiladi, raqamli biznes bilan tanishtiriladi. Raqamli transformasiyaning jamiyat uchun foydali yoki zararli bo'lishi mumkinmi degan savolga javoblar turli vaziyatlarda ko'rib chiqiladi. Raqamli bozorlarga xos bo'lgan haqiqiy holatlar ham tahlil qilinadi. Birinchidan, talabalar raqamli texnologiyalar va ularning iqtisodiyot sohalarida foydalanishni tahlil qiladilar, ikkinchidan, talabalar raqamli sektorlarda tez-tez paydo bo'ladigan platformalar va ikki tomonlama bozorlarning iqtisodiy xususiyatlarini o'rganadilar. Uchinchidan, kurs raqamli infratuzilma va raqamli mamlakatni qurish masalalarini qamrab oladi. To'rtinchidan, blokcheyn texnologiyasi bilan bog'liq iqtisodiy tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, talabalar katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash va unda bulutli texnologiyalarni qo'llash, axborot tizimlari va texnologiyalari xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlari, raqamli iqtisodiyotning blokcheyn texnologiyalari bilan amallarni bajarish, biznes-muhitlarda biznes axborot tizimlarining faoliyat yuritishi, elektron biznesni yuritish va samarali foydalanish bo'yicha har tomonlama bilimlarga ega bo'ladilar	5	4	
32.	SIT202425	Sun'iy intellekt tizimlari	Axborotni qidirish, tanqidiy tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati; kasbiy faoliyat kontekstida tabiatning asosiy tushunchalari, o'rganish ob'ektlari va usullari haqidagi bilimlardan foydalanish qobiliyati.	5	4	
33.	MENJ1405	Menejment	Menejmentning rivojlanish tarixi va hozirgi holati, menejmentning nazariy asoslari, menejment texnologiyasi, tashkilotlar va ularni boshqarish, zamonaviy menejer, boshqaruv mehnatini tashkil qilish, kichik biznesni faoliyat yuritishining boshqaruv va tashkiliy jihatlarini, korxona qudratini boshqarish, tovarlar	5	4	

			raqobatbardoshligini boshqarishni o'rganish, ulardan amaliyotda foydalanish, menejer kadrlarni o'qitish va ulardan iqtisodiyotni boshqarishda samarali foydalanish, menejment samaradorligi ko'rsatkichlari va uni baholash usullarini o'rganishdir.			
			3-bosqich 5-semestr majburiy fanlar			
34.	MAKIQ14510	Makroiqtisodiyot 1, 2	Makroiqtisodiyot 1 va 2 fanlari iqtisodiyotning umumiy ko'rsatkichlari, milliy iqtisodiyot va uning dinamikasini o'rganishga qaratilgan. Bu fanlar iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, ish bilan ta'minlash va davlat siyosatini tahlil qiladi. Iqtisodiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi va iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish uchun zarur bilimlarni beradi.	5	5	
35.	AIIO'1505	Atrof-muhit iqtisodiyoti va iqlim o'zgarishi	Atrof-muhit iqtisodiyoti va iqlim o'zgarishi - bu inson faoliyati va iqtisodiy qarorlarning tabiiy muhit va iqlimga ta'sirini o'rganadigan fan sohasi bo'lib, u iqtisodiyot va ekologiya kesishmasida joylashgan. Atrof-muhit iqtisodiyoti tabiiy resurslardan foydalanish va ularning chegaralanganligi, ifloslanish, energiya sarfi, qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishi kabi masalalarni iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Bu soha global iqlim o'zgarishining sabab va oqibatlarini, shuningdek, unga qarshi kurashish va moslashish yo'llarini o'rganadi	5	5	
36.	INQ1505	Institutsional iqtisodiyot	Institutsional iqtisodiyot - bu iqtisodiyotdagi institutlarning, ya'ni jamiyatdagi qoidalar, qonunlar, normalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat va natijalarga ta'sirini o'rganadigan fan sohasi. U iqtisodiy jarayonlarni kengroq ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstda tahlil qiladi.	5	5	
37.	MIQ1505	Moliyaviy iqtisodiyot	Moliyaviy iqtisodiyot fani moliya, iqtisodiyot va iqtisodiy qarorlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganishga qaratilgan. Bu fan, moliya bozorlaridagi iqtisodiy jarayonlarni, moliyaviy aktivlar va passivlar bilan bog'liq xatti-harakatlarni, shuningdek, investitsiya va moliyaviy strategiyalarni tahlil qilishga yordam beradi.	5	5	
38.	IQX1505	Iqtisodiy xavfsizlik	Iqtisodiy xavfsizlik — bu millat, jamiyat yoki individning iqtisodiy barqarorligi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan fan sohasi bo'lib, iqtisodiy xavf-xatarlarga qarshi himoya qilish mexanizmlarini o'rganadi. Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy maqsadi – iqtisodiy zararlardan, inqirozlardan va noaniqliklardan himoyalangan orqali aholi va davlat uchun barqaror, himoyalangan iqtisodiy muhit yaratishdir.	5	5	
39.	GIR1505	Global iqtisodiy rivojlanish	Mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy o'sish va farovonlik darajalaridagi farqlarni o'rganadigan, shuningdek, bu rivojlanish jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiladigan fan sohasi. U iqtisodiyotlarning global	5	5	

			miqyosda qanday o'zgarishini, integratsiyalashishini va o'zaro bog'lanishini o'rganadi.			
			3-bosqich 6-semestr majburiy fanlar			
40.	MIQTP1605	Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish	Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish — bu mamlakat yoki mintaqaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini umumiy ko'rinishda o'rganish va kelajakdagi iqtisodiy jarayonlarni oldindan baholash bilan shug'ullanadigan fan sohasi. Makroiqtisodiy tahlil iqtisodiyotning katta ko'lamli omillarini, ularning o'zaro bog'liqligini va iqtisodiy siyosatlarining ta'sirini tahlil qiladi, prognozlashtirish esa ushbu tahlillar asosida kelajakdagi o'zgarishlar haqida aniq bashoratlar beradi.	5	6	
41.	ILT1605	Investitsiya loyihalarini tahlili	Investitsiya loyihalarini tahlili fani investitsiya loyihalarini baholash, moliyaviy tahlil qilish va ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Bu fan, investitsiya qarorlarini qabul qilishda yordam beruvchi statistik, iqtisodiy va moliyaviy metodlarni o'rganishga asoslangan.	5	6	
42.	TIQ1605	Tarmoqlar iqtisodiyoti	Tarmoqlar iqtisodiyoti — bu iqtisodiyotning turli tarmoqlarining faoliyatini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini va iqtisodiy tizimdagi o'rnini o'rganadigan fan sohasi. Har bir tarmoqda iqtisodiy faoliyat va qarorlar qabul qilish jarayonlari bir-biridan farq qilishi mumkin, shuning uchun tarmoqlar iqtisodiyoti har bir tarmoqning iqtisodiy rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qilishini chuqur tahlil qiladi.	5	6	
			3-bosqich 6-semestr Tanlov fanlar (15 ECTS)			
		Iqtisodiyot				
43.	BHA2605	Buxgalteriya hisobi asoslari	Buxgalteriya hisobi asoslari fani moliyaviy hisob-kitoblarni yuritish, korxona va tashkilotlarning moliyaviy faoliyatini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalar va texnikalarni o'rgatuvchi kursdir. Bu fan orqali talabalar moliyaviy ma'lumotlarni to'g'ri qayd etish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'ladi.	5	6	
44.	XAI2605	Xulq atvor iqtisodiyoti	Xulq-atvor iqtisodiyoti (Behavioral Economics) — bu iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda insonning psixologik, kognitiv va hissiy omillari qanday rol o'ynashini o'rganadigan fan sohasi. An'anaviy iqtisodiyot nazariyasidan farqli o'laroq, xulq-atvor iqtisodiyoti insonlar iqtisodiy qarorlar qabul qilishda har doim ham ratsional emasligini, aksincha, turli xil psixologik cheklovlar, irratsionalliklar va hissiy holatlar ta'sirida qaror qilishlarini ko'rsatadi.	5	6	
45.	OORI2605	Ekologiya	Ekologiya fani — bu tirik organizmlar, ularning yashash muhiti va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi fan sohasidir. U tabiatdagi jarayonlar, tirik mavjudotlarning muhitga moslashuvi, populyatsiyalar va	5	6	

			ekotizimlarning tuzilishi hamda inson faoliyatining tabiatga ta'sirini tahlil qiladi. Ekologiya fanining asosiy maqsadi — biosferadagi tabiiy muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishdir. Bu fan inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, ekologik muammolarning oldini olish hamda barqaror rivojlanish uchun ilmiy asos yaratadi.			
46.		Yashil iqtisodiyot				
47.	BHA2605	Buxgalteriya hisobi asoslari	Buxgalteriya hisobi asoslari fani moliyaviy hisob-kitoblarni yuritish, korxona va tashkilotlarning moliyaviy faoliyatini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalar va texnikalarni o'rgatuvchi kursdir. Bu fan orqali talabalar moliyaviy ma'lumotlarni to'g'ri qayd etish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.	5	6	
48.	EM2605	Ekologik menejment	Ekologik menejment fani atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan boshqaruv tizimlarini o'rganadi. Bu fan ekologik masalalarni iqtisodiy faoliyat bilan birlashtirib, korxona va tashkilotlarda barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan bilimlarni taqdim etadi.	5	6	
49.	EKO2605	Ekologiya	Ekologiya fani organizmlar va ularning atrof-muhit bilan o'zaro aloqalarini, shuningdek, ekologik tizimlar, biologik xilma-xillik va tabiatning boshqaruv mexanizmlarini o'rganadi. Bu fan, tabiiy resurslarni muhofaza qilish, ekologik muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.	5	6	
50.		Raqamli iqtisodiyot				
51.	PYTTEC6	Python dasturlash tili asoslari	Python samarali, sodda va ko'p qirrali yuqori darajadagi dasturlash tilidir. U veb-ilovalar va amaliy dasturlarni ishlab chiqishda, shuningdek, mashinani o'rganishda va ko'proq ma'lumotlarni qayta ishlashda keng qo'llaniladi. Oddiy va intuitiv sintaksisi tufayli u dasturlashni o'rganish uchun eng keng tarqalgan tillardan biridir. Python dinamik tarzda terilgan til bo'lib, har xil turdagi o'zgaruvchilar bilan erkin ishlashimizga imkon beradi. Biroq, kod yozishda biz qandaydir tarzda o'zgaruvchilarning qaysi turlari ishlatilishini taxmin qilamiz (bu algoritm yoki biznes mantig'ining cheklanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin). Va dastur to'g'ri	5	6	

			ishlashi uchun biz uchun noto'g'ri turdagi ma'lumotlarni uzatish bilan bog'liq xatolarni iloji boricha tezroq topish muhimdir.			
52.	WEBTEC6	Web texnologiyalar	Mazkur fan hozirgi kunda veb dasturlash texnologiyalarni jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi va uni inson faoliyatining barcha sohalariga kirib borishi bilan chambarchas bog'liq. Veb dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishda veb texnologiyalardan foydalaniladigan asosiy va zamonaviy dasturlash tillari, ularning tuzilishi va ulardan foydalanish metodlari, xar bir dasturning afzalligi va kamchiligi, fanning rivojlanish tendensiyasi, istiqboli hamda respublikamizdagi bu borada olib borilayotgan ishlar va olinayotgan natijalar Veb ilovalarni ishlab chiqish sohasida foydalaniladigan dasturlash tillari istiqboliga ta'siri masalasini qamraydi. Shuningdek, talabalarga veb texnologiyalar sohasidan fundamental nazariy va amaliy bilimlarni berishdan iboratdir. Ushbu fan talabalarda veb dasturlash texnologiyalarida ishlash va o'zlari amalda tadbqiq etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Mustaqil o'rganish sifatida frontend (frontend) va bекend (backend) texnologiyasiga doir qo'shimcha freymvorklarni o'rganish talab etiladi. Fanni o'rganish amaliy veb ilovalarni yaratish hamda mustaqil o'z xohish-istaklaridan kelib chiqib vweb interfeyslarni yaratish bilan mustaxkamlanadi	5	6	
53.	COMP6120	Ekologiya	Ekologiya fani — bu fan tirik organizmlar va ularning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini o'rganadi. Fanning asosiy mazmuni ekotizimlar tuzilishi va funksiyalari, modda va energiya aylanishi, biosferaning barqarorligi, inson faoliyatining tabiatga ta'siri hamda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarini qamrab oladi.	5	6	
			4-bosqich 7-semestr Tanlov fanlar (30 ECTS)			
		Iqtisodiyot				
54.	BRA2705	Barqaror rivojlanish asoslari	Barqaror rivojlanish asoslari — bu iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni birlashtirib, kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolgan holda hozirgi zamon ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan fan sohasi. Barqaror rivojlanish inson faoliyatining natijalari, resurslardan foydalanish va ularning ta'sirini o'rganadi.	5	7	
55.	BTQ2705	Bozorlarni tahlil qilish	Bozorlarni tahlil qilish — bu bozorlarning strukturasi, funksiyalari, raqobat darajasi, talab va taklif dinamikasi kabi jihatlarni o'rganadigan fan sohasi. U iqtisodiy nazariyalar va modellar yordamida bozorlarning qanday ishlashini, ularning samaradorligini va iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi o'rnini tahlil qiladi.	5	7	
56.	RIVI2705	Rivojlanish iqtisodiyoti	Rivojlanish iqtisodiyoti — bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini, ularning iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va farovonlik darajasini oshirishga qaratilgan xususiyatlarini o'rganadigan fan sohasi. U asosan	5	7	

			rivojlanayotgan mamlakatlar yoki mintaqalarning o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini tahlil qiladi			
57.	XS2705	Xalqaro marketing	Xalqaro marketing fani — bu korxona va tashkilotlarning mahsulot yoki xizmatlarini xalqaro bozorlarida targ'ib qilish, sotish va boshqarish jarayonlarini o'rganuvchi fan. U turli mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy, siyosiy va huquqiy sharoitlarini hisobga olgan holda marketing strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni o'rganadi. Xalqaro marketingning asosiy maqsadi — xorijiy bozorlarni o'rganish, raqobatbardosh mahsulot yaratish, savdo hajmini oshirish va korxonaning xalqaro imidjini mustahkamlashdir.	5	7	
58.	IRB2705	Inson resurslarini boshqarish	Inson resurslarini boshqarish (HRM) — bu tashkilotlarda inson resurslarini samarali boshqarish, ulardan maksimal foyda olish va ishchilarning salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan fan sohasi. HRM tashkilotning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo'lgan insoniy omillarni boshqarish jarayonlarini o'rganadi. Inson resurslarini boshqarish zamonaviy tashkilotlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ularning muvaffaqiyati ko'p hollarda xodimlarning qobiliyati va mehnat unumdorligiga bog'liqdir	5	7	
59.	DESTDS6	Loyiha yaratish va raqamli startap	"Loyiha yaratish va raqamli startap" fani startap muhitida ishlashda zarur bo'lgan bilim va malakalarni shakllantirish; talabalarining tadbirkorlik sohasiga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, raqamli muhitda startaplarni rivojlantirish bilan bog'liq foyda, imkoniyatlar, shuningdek muammolar va xatarlarni anglash; talabalarni hayotga tatbiq etiladigan startapning jarayonlari va vositalari bilan tanishtirish kabi malaka va ko'nikmalarni shakllantiradi.	5	7	
		Yashil iqtisodiyot				
60.	YI2705	Yashil iqtisodiyot	Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy rivojlanishning atrof-muhitga zarar bermasdan, barqaror va samarali usullarini izlashga qaratilgan fan sohasi. Yashil iqtisodiyot ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni birlashtirib, resurslardan oqilona foydalanishni, energiya samaradorligini oshirishni va tabiatni muhofaza qilishni maqsad qiladi. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va ekologik muhofazani birlashtirib, kelajak avlodlar uchun barqaror va farovon jamiyatni yaratishga qaratilgan	5	7	
61.	YTR2705	Yashil texnologiyalarni rivojlantirish	Yashil texnologiyalarni rivojlantirish fani atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, resurslarni samarali boshqaradigan va barqaror rivojlanishga yordam beradigan texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etishni o'rganadi. Bu	5	7	

			fan ekologik toza texnologiyalar va energiya manbalarini joriy etish orqali ijtimoiy va iqtisodiy o'sishni tabiiy resurslar bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan.			
62.	BET2705	Barqaror energiya tizimlari	Barqaror energiya tizimlari fani atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, uzoq muddat davomida foydalanilishi mumkin bo'lgan energiya manbalarini o'rganadi. Ushbu fan qayta tiklanadigan energiya manbalarini (quyosh, shamol, geotermal, gidroenergiya va boshqalar) samarali boshqarish va joriy qilishga qaratilgan bo'lib, energiya samaradorligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalariga e'tibor beradi.	5	7	
63.	GIO'2705	Global iqlim o'zgarishi	Global iqlim o'zgarishi fani - bu fan Yer iqlimining uzoq muddatli o'zgarishlari, ularning sabablari va oqibatlarini o'rganadi. Fanning asosiy mazmuni atmosferadagi issiqxona gazlari ta'siri, global isish, suv va yer resurslariga ta'siri, ekologik va ijtimoiy xavf-xatarlar hamda inson faoliyatini yanada barqaror qilish va iqlimga moslashuv choralari masalalarini qamrab oladi.	5	7	
64.	IRB2705	Inson resurslarini boshqarish	Inson resurslarini boshqarish (HRM) — bu tashkilotlarda inson resurslarini samarali boshqarish, ulardan maksimal foyda olish va ishchilarning salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan fan sohasi. HRM tashkilotning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo'lgan insoniy omillarni boshqarish jarayonlarini o'rganadi. Inson resurslarini boshqarish zamonaviy tashkilotlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ularning muvaffaqiyati ko'p hollarda xodimlarning qobiliyati va mehnat unumdorligiga bog'liqdir	5	7	
65.	DESTDS6	Loyiha yaratish va raqamli startap	"Loyiha yaratish va raqamli startap" fani startap muhitida ishlashda zarur bo'lgan bilim va malakalarni shakllantirish; talabalarning tadbirkorlik sohasiga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, raqamli muhitda startaplarni rivojlantirish bilan bog'liq foyda, imkoniyatlar, shuningdek muammolar va xatarlarni anglash; talabalarni hayotga tatbiq etiladigan startapning jarayonlari va vositalari bilan tanishtirish kabi malaka va ko'nikmalarni shakllantiradi.	5	7	
66.		Raqamli iqtisodiyot				
67.	BMAN24642	Raqamli transformatsiya	Ushbu kurs raqamli strategiya va transformatsiya orqali tashkilotlar strategiyasini ishlab chiqishda yordam beradigan turli texnologiyalar bilan bog'liq yangi imkoniyatlar va muammolarni o'rganishga, shuningdek, transformatsiyalar samaradorligini oshiradigan va tashkilotlarga raqobatbardosh ustunliklarni ta'minlaydigan raqamli tashabbuslarni qanday aniqlash mumkinligiga qaratilgan. Ushbu kursni o'tayotgan talabalar tashkilotda raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Talabalar raqamli transformatsiya strategiyasini yaratish uchun zarur bo'lgan	5	7	

			raqamli madaniyat va tuzilmalar haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar.			
68.	RBM2705	Raqamli biznes modellar	Ushbu o'quv dastur "Raqamli biznes modellar" fanidan "Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil oladigan bakalavriatura talabalari uchun tuzilgan bo'lib, bo'lajak mutaxassis egallashi kerak bo'lgan raqamli biznes modellarining shakllantiruvchi asosiy unsurlar, sanoat va kompaniyalarni raqamlashtirish, dasturiy ta'minot biznesi bo'yicha bilimlar va ko'nikmalar majmuini o'z ichiga oladi.	5	7	
69.	BDTU2705	Big Data tahlillash usullari	"Big data tahlillash usullari" kursi talabalarda katta ma'lumotlarni tahlil qilish, maxsus dasturiy ta'minot tizimlarini ishlab chiqish, ma'lumotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni oldindan qayta ishlash, ma'lumotlarni vizualizasiya qilish, katta hajmdagi ma'lumotlar natijalarini taqdim etish kabi texnologiyalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.	5	7	
70.	ATYL2705	Axborot tizimlari yechimlari va loyihalash	Axborot tizimida loyihaviy hujjatlarni ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlarni to'plash, texnik topshiriqlarga muvofiq axborot tizimi modullarini ishlab chiqishni amalga oshirish, axborot tizimining ishlashi uchun texnik hujjatlarni ishlab chiqish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.	5	7	
71.	BRA2705	Barqaror rivojlanish asoslari	Barqaror rivojlanish asoslari fani — bu fan jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanish jarayonlarini o'zaro muvofiq holda tashkil etish tamoyillarini o'rganadi. Fanning asosiy mazmuni tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish masalalarini qamrab oladi.	5	7	
72.	DESTDS6	Loyiha yaratish va raqamli startap	"Loyiha yaratish va raqamli startap" fani startap muhitida ishlashda zarur bo'lgan bilim va malakalarni shakllantirish; talabalarning tadbirkorlik sohasiga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, raqamli muhitda startaplarni rivojlantirish bilan bog'liq foyda, imkoniyatlar, shuningdek muammolar va xatarlarni anglash; talabalarni hayotga tatbiq etiladigan startapning jarayonlari va vositalari bilan tanishtirish kabi malaka va ko'nikmalarni shakllantiradi.	5	7	
			4-bosqich 8-semestr majburiy fanlar			
73.		Malakaviy amaliyot	Malakaviy amaliyotining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: 1. Ilmiy, konstruktorlik va loyixa tashkilotlarida, birjalarda, banklarda, makroiqtisodiyot va statistika qo'mita organlarida malumotlar yig'ish, ularni qayta ishlashda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash usullarini o'rganish. 2. Umumta'lim maktablarida, akademik litseylarda, kasb-hunar kollejlarda, institutlarda va universitetlarda o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari asosida olib borish usullari bilan tanishish. 3. Talabalar amaliyot o'tadigan tashkilotlarda	30	8	

			mavjud bo'lgan uslubiy ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqnomalar va h.k. hujjatlarni o'rganish. 4. Amaliyot o'tadigan tashkilotlarda mustaqil ishlashning amaliy yakunlarini egallash. 5. Axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilishda, hamda hisobot ma'lumotlarining aniqligini tekshirishda talabalarning bevosita ishtirok etishlarini ta'minlash. 6. Amaliyot o'tadigan tashkilotlarning o'zida mavjud bulgan vazifalarini bajarishi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy ommaviy ishlarni olib borishda ko'maklashish. 7. Ijtimoiy-siyosiy tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlar olib borish sohasida kerakli o'quv bilimlarni egallash. 8. Amaliyot haqidagi hisobotni, ilmiy ishlarni amalga oshirish uchun kerakli materiallarni to'plash.			
74.		Yakuniy davlat attestatsiyasi	Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash; yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish; komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.	-	8	

Izox: 1. * - Fan kodi quyidagicha belgilanadi: fanning qisqartirilgan nomi, majburiy yoki tanlovligi (majburiy fan - 1, tanlov fani - 2), o'qitiladigan semestr(lar), ajratilgan umumiy kredit miqdori. Masalan: "XT1108" - XT – "Xorijiy til" Fani, 1 - majburiy Fan, 1 - birinchi semestrda o'qitiladi; 08 - fanga ajratilgan umumiy kredit miqdori.

2. Namunaviy o'quv rejasi va fanlar katalogiga mos ravishda talabning shaxsiy ta'lim trektoriyasi shakllantiriladi.

Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası mudiri



O.Pardayeva